

DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDA ILMIY-HUQUQIY TAVSIYALARNI AMALIYOTGA JORIY ETISHDAGI INSTITUTSIONAL MUAMMOLAR

Tursunov Sardorbek Sidiqjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: yu.f.d. (PhD) Ibroxim Atamirzayev

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18943226>

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat boshqaruvi tizimida ishlab chiqilayotgan ilmiy-huquqiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan institutsional muammolar yuridik tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, ilmiy-huquqiy tavsiyalar, institutsional islohotlar, byurokratik madaniyat, normativ mexanizm, huquqni qo‘llash amaliyoti, boshqaruv samaradorligi, ilmiy ekspertiza.

Аннотация. В данной статье проводится юридический анализ институциональных проблем, возникающих в процессе внедрения научно-правовых рекомендаций в практику системы государственного управления.

Ключевые слова: государственное управление, научно-правовые рекомендации, институциональные реформы, бюрократическая культура, нормативный механизм, правоприменительная практика, эффективность управления, научная экспертиза.

Abstract. This article analyzes the institutional problems that arise in the process of implementing scientific and legal recommendations into practice within the public administration system.

Keywords: public administration, scientific-legal recommendations, institutional reforms, bureaucratic culture, regulatory mechanism, law enforcement practice, governance efficiency, scientific expertise.

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi ilmiy asoslangan yondashuvsiz samarali faoliyat yurita olmaydi. Boshqaruv qarorlarining puxtaligi, huquqiy islohotlarning barqarorligi hamda jamiyat rivojlanish strategiyasining izchilligi ilmiy-huquqiy tavsiyalarni amaliyotga qay darajada joriy etilishiga bevosita bog‘liq.

A.X.Saidovning ta’kidlashicha, "Huquqiy davlat qurish jarayonida ilmiy asoslangan boshqaruv modeli ustuvor ahamiyat kasb etadi, chunki davlat faoliyati tasodifiy emas, balki ilmiy tahlilga tayangan holda amalga oshirilishi lozim"[1]. Biroq amaliyotda ilmiy ishlanmalar bilan real boshqaruv mexanizmlari o‘rtasida institutsional uzilish mavjud.

Ushbu maqolamning maqsadi ham shundan iboratki, ilmiy-huquqiy tavsiyalarni davlat boshqaruviga joriy etishdagi tizimli to‘siqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning huquqiy mexanizmlarini tahlil qilishdir

Birinchi o‘rinda, ilmiy-huquqiy tavsiyalar va davlat boshqaruvi integratsiyasi muammosiga e’tibor qaratmoqchiman.

Davlat boshqaruvi nazariyasida ilmiy yondashuv strategik boshqaruvning ajralmas elementi sifatida qaraladi.

X.T.Odilqoriyev "Davlat boshqaruvi samaradorligi ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga bog‘liq ekanini, boshqaruv tizimi doimiy ilmiy tahlil bilan boyitilib borilishi lozimligini" – qayd etadi [2].

Amaliyotda esa ilmiy tavsiyalar ko‘pincha maslahat darajasida qolib ketadi. Ilmiy muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual takliflar normativ-huquqiy hujjatlarga to‘liq integratsiya qilinmaydi. Bu holat ilmiy hamjamiyat va davlat organlari o‘rtasida mustahkam institutsional hamkorlik mexanizmlari yetarli shakllanmaganini ko‘rsatadi.

M.X. Rustamboyev huquq ijodkorligi jarayonida shuni aytib o‘tadilar "ilmiy ekspertiza mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ta’kidlab, ilmiy xulosalar majburiy tavsiyaviy xarakter kasb etishi lozimdir" – deya qayd etadi [3]. Aks holda ilmiy tavsiyalar normativ ijodkorlikka real ta’sir ko‘rsatmaydi.

Ikkinchi navbatda, normativ-huquqiy mexanizmlarning institutsional cheklovlariga diqqat qaratib o‘tmoqchiman.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

O.S.Yusupov fikricha, "normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ilmiy ekspertiza tizimi yetarlicha institutsional kuchga ega emasligini, ekspert xulosalari ko‘pincha formal xarakterga ega bo‘lib qolayotganini ta’kidlaydi [4]."

Normativ ijodkorlik jarayonida ilmiy tahlil yetishmasligi qisqa muddatli siyosiy qarorlarning ustun bo‘lishiga olib keladi. Bu esa uzoq muddatli strategik boshqaruv konsepsiyalarini zaiflashtiradi.

Shuningdek, ilmiy tavsiyalarni normativ hujjatlarga kiritish mexanizmlarining aniq tartibga solinmaganligi huquqiy islohotlarning uzviyligini buzadi.

Uchinchidan esa, kadrlar salohiyati va institutsional madaniyatga e’tibor qaratamiz.

Ilmiy tavsiyalarni joriy etishda inson omili hal qiluvchi juda muhim ahamiyatga egadir. R.R. Xasanov shunday fikrni ilgari suradi, “davlat xizmatchilarining ilmiy-analitik kompetensiyasi boshqaruv samaradorligining muhim omili ekanini, davlat xizmatida ilmiy tayyorgarlikka ega mutaxassislar ulushini oshirish zarurligini ta’kidlaydi” [5].

Byurokratik madaniyat, yangilikka nisbatan ehtiyotkorlik va tashabbus yetishmasligi ilmiy innovatsiyalarni sekinlashtiradi. "Byurokratik madaniyat nima?" - degan savolga javob berib o‘tmoqchiman. Qisqa ilmiy ta’rif beradigan bo‘lsam, "Byurokratik madaniyat — bu davlat boshqaruvi tizimida shakllangan rasmiy qoidalar, xizmat odobi, qaror qabul qilish an’analari va tashkiliy xulq-atvor majmui bo‘lib, u boshqaruv samaradorligini bevosita belgilaydi. Bu tushunchani davlat boshqaruviga quyidagicha ta’sirlari bor:

Byurokratik madaniyatning ijobiy tomoni shundaki, u boshqaruvni qoidalar asosida olib borishni talab qiladi. Ya’ni: qarorlar shaxsiy xohishga emas, hujjatlar va protseduralarga, rasmiy tartiblarga tayanadi. Bu davlat boshqaruvida barqarorlik va oldindan prognoz qilish imkonini beradi. Fuqaro kimga murojaat qilmasin, bir xil tartib ishlashi kerak — bu byurokratik madaniyatning huquqiy ijobiy jihati.

Byurokratik tizimda: lavozimlar aniq bo‘linadi, vakolatlar chegaralangan bo‘ladi, buyruq yuqoridan pastga tushadi. Bu tartib intizomni ta’minlaydi, lekin haddan oshsa: tashabbusni o‘ldiradi, mas’uliyatni bir-biriga yuklashga olib keladi, ishni sekinlashtiradi. Shu sababli zamonaviy boshqaruvda “moslashuvchan byurokratiya” modeli muhim hisoblanadi.

Endi esa salbiy byurokratik madaniyat quyidagicha namoyon bo‘ladi: natijadan ko‘ra hujjatga e’tibor berish, real muammoni emas, shaklni muhim deb bilish, ortiqcha ruxsatlar va imzolar talab qilish, jarayonni sun’iy cho‘zish. Bunda maqsad - mas’uliyatdan qochish yoki xavfsiz yo‘lni tanlash bo‘lib qoladi. Natijada ilmiy tavsiyalar, innovatsiyalar sekin joriy etiladi.

Shuningdek, Institutsional madaniyat ilmiy yondashuvni qabul qilishga tayyor bo‘lmasa, hatto mukammal ilmiy tavsiyalar ham real natija bermaydi.

Davlat boshqaruvi ko‘p darajali tizim bo‘lib, ilmiy tavsiyalarni joriy etish turli idoralar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan faoliyatni talab qiladi.

Z.M.Islomov "ma’muriy islohotlar samaradorligi idoralararo hamkorlik darajasiga bog‘liq ekanini, vakolatlar takrorlanishi va funksional chalkashliklar boshqaruvni zaiflashtirishini" – ta’kidlab o‘tadi[6].

Yagona koordinatsion mexanizmning yetishmasligi ilmiy tavsiyalarni kompleks joriy etishga to‘sqinlik qiladi. Natijada islohotlar parchalanib ketadi va tizimli natija bermaydi.

Beshinchidan esa huquqni qo‘llash amaliyotidagi tafovutlar ham muhim jihatlardandir.

Normativ darajada mustahkamlangan ilmiy tavsiyalarni amaliyotda bir xil qo‘llash muhim masala hisoblanadi. J.T.Xolmo‘minov "huquqni qo‘llash jarayonida yagona interpretatsiya mexanizmlarining yetishmasligi turlicha amaliyotga olib kelishini" – qayd etadi[7].

Sud va ma’muriy amaliyotdagi tafovutlar ilmiy asoslangan normativ modelning barqarorligini pasaytiradi. Bu esa fuqarolarning huquqiy ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oltinchi navbatda shuni aytib o‘tish kerakki, ilmiy tavsiyalarni joriy etishning institutsional yo‘llariga ham sinchkovlik bilan ahamiyat berish lozim.

Ilmiy-huquqiy tavsiyalarni amaliyotga samarali joriy etish uchun quyidagi mexanizmlar zarur:

- ✓ normativ hujjatlarni majburiy ilmiy ekspertizadan o‘tkazish;
- ✓ davlat organlari huzurida ilmiy maslahat kengashlarini yaratish;
- ✓ davlat xizmatchilarini ilmiy tayyorlash tizimini kuchaytirish;
- ✓ idoralararo koordinatsiya platformalarini joriy etish
- ✓ huquqni qo‘llash amaliyotini yagona standartlashtirish.

Bu mexanizmlar ilmiy yondashuvni boshqaruv tizimiga institutsional darajada singdirishga xizmat qiladi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvi sohasida ilmiy-huquqiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish murakkab va ko‘p darajali institutsional jarayon bo‘lib, u faqat normativ-huquqiy islohotlar bilan cheklanmaydi, balki boshqaruv madaniyati, tashkiliy tuzilma va inson omili bilan chambarchas bog‘liqdir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy hamjamiyat bilan davlat boshqaruvi organlari o‘rtasidagi uzilish tizimli xarakterga ega bo‘lib, bu ilmiy ishlanmalar va real boshqaruv amaliyoti o‘rtasida tafovutni yuzaga keltirmoqda. Natijada ilmiy asoslangan takliflar strategik qarorlar qabul qilish jarayonida to‘liq aks etmayapti.

Normativ-huquqiy mexanizmlarning yetarlicha institutsionallashtirilmaganligi ham muhim to‘siq hisoblanadi. Ilmiy ekspertiza institutining formal tusda qolib ketishi, ilmiy tavsiyalarning majburiy kuchga ega emasligi hamda normativ ijodkorlik jarayonida tahliliy yondashuvning sustligi boshqaruv islohotlarining izchilligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, davlat xizmatchilarining ilmiy-analitik salohiyati yetarli darajada shakllanmaganligi, doimiy malaka oshirish mexanizmlarining samaradorligi pastligi ilmiy tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etishni qiyinlashtirmoqda.

Idoralararo muvofiqlashtirishdagi tizimli kamchiliklar ham ilmiy yondashuvni joriy etishda jiddiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Vakolatlarning takrorlanishi, funksional chalkashliklar va axborot almashinuvidagi uzilishlar ilmiy asoslangan boshqaruv modelining kompleks joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, huquqni qo‘llash amaliyotidagi tafovutlar normativ darajada mustahkamlangan ilmiy tavsiyalarning barqaror ishlashini susaytiradi, bu esa huquqiy aniqlik va fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ilmiy yondashuvni davlat boshqaruvi tizimiga chuqur integratsiya qilish strategik zarurat hisoblanadi. Buning uchun ilmiy ekspertiza institutini real ta‘sir kuchiga ega mexanizmga aylantirish, davlat organlari huzurida ilmiy maslahat tuzilmalarini shakllantirish, kadrlar tayyorlash tizimini ilmiy-analitik kompetensiyalar asosida qayta ko‘rib chiqish hamda idoralararo koordinatsiyani raqamli platformalar orqali kuchaytirish lozim. Huquqni qo‘llash amaliyotida yagona standartlarni shakllantirish esa ilmiy tavsiyalarning barqaror ishlashini ta‘minlaydi.

Umuman olganda, ilmiy yondashuvni institutsional darajada mustahkamlash huquqiy davlat barpo etish, ochiq va samarali boshqaruvni shakllantirish hamda uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlashning fundamental sharti hisoblanadi. Ilm-fan va boshqaruv integratsiyasi qanchalik kuchli bo‘lsa, davlat boshqaruvi shunchalik prognoz qilinadigan, adolatli va natijador bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidov A.X. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: Adolat, 2020-yil
2. Odilqoriyev X.T. Davlat boshqaruvi nazariyasi. Toshkent: TDYU, 2019-yil
3. Rustamboyev M.X. Huquq ijodkorligi muammolari. Toshkent: 2018-yil
4. Yusupov O.S. Normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi. Toshkent, 2021-yil
5. Xasanov R.R. Davlat xizmati va boshqaruv samaradorligi. Toshkent, 2020.
6. Islomov Z.M. Ma‘muriy islohotlar nazariyasi. Toshkent, 2019-yil
7. Xolmo‘minov J.T. Huquqni qo‘llash nazariyasi. Toshkent: TDYU, 2018-yil